



Socio-pedagogical analysis of issues related to family-school collaboration

Akramjon MATKARIMOV¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

family,
school,
student,
cooperation,
educational environment in
the family,
international evaluation
studies.

ABSTRACT

International assessment studies pay special attention to the socio-pedagogical aspects of families and educational institutions. The family atmosphere, the creation of a supportive educational environment at home, and the positive attitude of parents towards education play a key role in students' academic success. The article also systematically examines issues related to establishing effective cooperation between families and schools.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp72-76>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oila va maktab hamkorligiga doir muammolarning ijtimoiy-pedagogik tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

oila,
maktab,
o'quvchi,
hamkorlik,
oiladagi ta'lim muhiti,
xalqaro baholash
tadqiqotlari.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida ham oila va ta'lim muassasasi hakorligining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga keng e'tibor qaratilgan. O'quvchining ta'limda muvaffaqiyatga erishishida oila muhiti, oilada ta'lim muhitining shakllanganligi hamda ota-onalarning ta'limga bo'lgan ijobiy munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada shuningdek oila va maktab hamkorligini yo'lga qo'yishdagi muammolar ham tizimli tahlil qilingan.

¹ Acting Professor, Department of Primary Education Methodology, Andijan State Pedagogical Institute.
E-mail: akramjon14@list.ru

Социально-педагогический анализ проблем сотрудничества семьи и школы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

семья,
школа,
ученик,
сотрудничество,
образовательная среда
в семье,
международные
оценочные исследования.

Международные оценочные исследования уделяют особое внимание социально-педагогическим аспектам семьи и образовательных учреждений. Семейная атмосфера, создание благоприятной образовательной среды дома, а также позитивное отношение родителей к обучению играют ключевую роль в достижении успехов учащихся. В статье также систематически рассматриваются проблемы, связанные с установлением эффективного сотрудничества между семьёй и школой.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 6-ilovasida keltirilgan "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohatlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi"da ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan oshirishga qaratilgan vazifalarda "ota-onalarning farzand tarbiyasiga bee'tiborligi, o'quvchilar o'rtasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etishning salbiy oqibatlari aks ettirilgan videokontentlarni tayyorlash hamda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar, ota-onalar o'rtasida namoyish etish [1]" belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur yo'l xaritasida "Ta'lim olish uchun qulay shart-sharoit yaratish" deb nomlangan V qismida "Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish" alohida ta'kidlab o'tigan. Mazkur vazifalar mazmuniga "aholini ta'lim muhitini rivojlantirishga jalb qilish, maktablarni rivojlantirishda shaxsiy daxldorlik hissini shakllantirish" vazifasi alohida belgilab o'tilgan.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati yuqori ko'rsatkichga ega emasligi, milliy ta'lim tizimi va oila hamkorligiga doir muammolarni yetarli darajada hal qilinmaganligi bilan izohlanadi. Bu masala milliy ta'lim tizimining siyosiy maqsadi sifatida shakllanmog'i darkor. Shuningdek, oilalarning rivojlanishi oila joylashgan hududga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu o'z navbatida kommunal siyosatning aniq maqsadga yo'naltirilgan va hududda yashovchi aholi talab va istaklari asosida shakllantirilgan chora-tadbirlarning samarali tadbiriq etish bilan ham bog'liq. Oiladagi ta'lim va tarbiya jarayoniga ko'maklashish hududdagi oilalar bilan ishlash muassasalari, kattalar ta'limi markazlari, yoshlar markazlari, bolalar bog'chalari, maktablar, diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaning ta'lim resurslarini oila a'zolari tomonidan farzandlarining ta'lim olishi uchun xizmat qiladigan ta'lim vositalari, materiallari va texnologiyalari tashkil etadi. Ta'limiy resurslar farzandlarni bilimlarni o'zlashtirishi, mustaqil ta'lim olish jarayonini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash, o'rganish strategiyasini egallashga yordam beruvchi, jamiyatning yangi talablaridan kelib chiqqan holda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish (virtual ta'lim texnologiyalari va ulardan foydalanish uchun imkoniyat), o'qitish metodikasini o'zgartirish, yangi talabalar uchun tayyorlash, fanlar bilan bog'liq barcha ko'nikmalarni o'rganishga va fani tahlil qilishga yordam beradi.

Oiladagi ta'limiy muhit bilan bog'liq muammolarning asosiysi ota-onalarning pedagogik kompetentsiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, jamiyatda farzand tarbiyasi va ta'limi bo'yicha professional ta'lim dasturlarining mavjud emasligi, kamligi yoki mazmunining sifat darajasi pastligi. Buning natijasida ota-onalar internet tarmog'i orqali, o'z tanishlari orqali tajriba almashish orqali istagan ma'lumotlarini topishga harakat qiladi. Yana bir jihati aynan oiladagi ta'lim muhitini rivojlantirishga doir ma'lumotlar oiladagi tarbiyaviy muhitni rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarga nisbatan kamroq uchraydi. Ota-onalarning pedagogik kompetentsiyalarini rivojlantirish institutsional va professional yondoshuvni taqozo etadi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi. Bularni amalga oshirishda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro muloqot ham muhim ahamiyatga ega [2; 11]. Oila va maktab hamkorligiga doir ijtimoiy-pedagogik muammolar quyidagi jadvalda tasvirlangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Oila va maktab hamkorligiga doir ijtimoiy-pedagogik muammolar

Muammolar	Tavsifi
Muloqotga doir muammolar	Maktab va ota-onalar o'rtasidagi aloqaning yo'qligi yoki tushunarsizligi, tushunmovchiliklar yoki ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki to'g'ridan-to'g'ri manzilli muloqotning mavjud emasligi
Turli tuman xohish-istak va kutishlari	Maktab va ota-onalarning ta'lim, tarbiya va hamkorlik bo'yicha turli xohish-istaklari va kutishlari. Ota-onalar maktabdan farzandini yetarli bilim olishini umid qilsa, maktab o'qituvchisi mavjud shart-sharoit va o'quvchining vaziyatida ota-onaning ko'proq ishtirokiga umid qilishi va shu kabilar
Til yoki madaniy to'siqlar	Muloqot va hamkorlikni qiyinlashtiradigan til to'siqlari yoki madaniy farqlar tufayli qiyinchiliklar. Rus guruhlar, boshqa hududdan ko'chib kelish hisobiga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlar
Vaqt va tashkiliy muammolar	Ota-onalarning maktab tadbirlari, ota-onalar yig'ilishlari yoki boshqa maktab tadbirlarini muvofiqlashtirishda qiyinchiliklar yoki jiddiy qabul qilmasligi.
Ishtirok etish va majburiyatning yetishmasligi	Ota-onalarning maktab masalalariga kam qiziqishi yoki tashabbuskorlikning yetishmasligi, ota-onalar yig'ilishlari yoki loyihalarida kam ishtirok etish.
Mojarolar va keskinliklar	Turli qarashlar, taxminlar yoki xatti-harakatlar tufayli maktab va ota-onalar o'rtasida ziddiyat yoki keskinlikning paydo bo'lishi.
Tengsizlik va ijtimoiy noqulaylik	Ijtimoiy yoki iqtisodiy farqlar tufayli ota-onalarning ayrim guruhlariga teng bo'lmagan munosabat yoki noqulayliklar.
Qo'llab-quvvatlash tizimlarining yetishmasligi	Alohida ehtiyojga ega, murakkab vaziyatga tushib qolgan ota-onalar uchun maktab tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash hamda resurslarning yetishmasligi.

Shaffoflik va ishtirok
etishning etishmasligi

Maktab tomonidan qabul qilingan qarorlar hamda jarayonlar haqida shaffoflikning yo'qligi yoki kamligi, ota-onalarning maktab qarorlarini qabul qilish jarayonlarida kam ishtirok etishi.

Jamiyatda oilalardagi tuzilmalar o'zgarib bormoqda. Ba'zi yosh oilalarda avvalgidek uch avlod birga yashashi kamayib bormoqda. Oila katta avlod vakillarining birgalikda yashashi farzandlarda qadriyatlar kamol topishida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, globallashuv davrida axborot oqimining kattaligi yoshlarga ta'sir qilmay qolmaydi. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy ehtiyojlari ham o'zgarib bormoqda. Bu esa har bir insonning individual turmush kechirishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda avlodlar almashinuvi jarayoni tezlashmoqda va ularning fikrlash darajasi ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi maktab yoshidagi bolalar asosan Z va α gen avlodlariga to'g'ri keladi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy sohada qadriyatlarga munosabatni shakllanishida muhim ekanligini ko'rsatadi. Boshqa tarafdin maktablarning o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdagi funksional vazifalari salmog'i, ijtimoiy ma'suliyati yildan-yilga oshib bormoqda. Bunday vaziyatda o'quvchilarga qadriyatlarni yetkazishda ham o'qituvchidan ulkan professionallik, muntazam ravishda faollashtirib turuvchi bilim va ko'nikmalar talab etadi. Shuningdek, ta'lim tizimidagi xalqaro baholash dasturlarining joriy etilishi jamiyatning yildan-yilga ta'lim va uning sifatiga talablari oshib borayotganini bildiradi.

Oila va maktabning muvaffaqiyatli hamkorligi uning barcha ishtirokchilari (o'qituvchi, o'quvchi, ota-onalar, maktab rahbariyati) uchun ijobiy jihatlari bilan tavsiflanadi. O'qituvchilarga muvaffaqiyatli hamkorlikning ijobiy tomonlari sifatida ularning kasbiy faoliyatidagi yengillik effekti bilan xarakterlanadi va ular o'quvchilarning oilasi va ijtimoiy-madaniy kelib chiqishi to'g'risida osonroq va ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi va shu tariqa ta'lim-tarbiya ishlarida maqsadli faoliyat va samarali natijaga erishadi. Ota-onalar esa maktab faoliyati haqida keng va atroflicha ma'lumotga ega bo'ladi, shuningdek hamkorlikning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Hamkorlikning samarador natijalaridan eng ko'pi o'quvchilarga tegishli bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayonida va shaxsiy rivojlanishida har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi [5; 21].

Tadqiqotlar oila va maktab hamkorligini mustahkamlash borasida ko'plab muammolar mavjud ekanligini ko'rsatadi [3; 266]. Muammoning eng asosiysi sifatida ota-onalar yoki o'qituvchilarning hamkorlikka qiziqishi yo'qligi bilan tavsiflanadi. Otterpohl va Wild [4; 295] o'z tadqiqotlarida qat'iy xulosa sifatida, muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aslida barcha ishtirokchilarning yagona "hamkorlik" tushunchasiga ega bo'lishi tushuniladi. Bunda ota-onalar, shuningdek maktab ma'muriyati, o'qituvchilarning hamkorlik borasidagi tasavvurlari tubdan bir-biridan farq qiladi. Asosiy faoliyat sifatida darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, zarurat bo'lganda tashkillashtiriladigan kam sonli suhbatlar oddiy sheriklik munosabatlari sifatida baholanishi mumkin. Bunda albatta kommunikativ muvafiqilashtirish jarayoni zarur bo'lib, ota-ona va maktab hamkorligi aslida qanday bo'lishi va amalga oshirilishi lozimligi muzokaralar orqali aniqlashtirib olinishi lozim.

Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlardagi ilmiy tahlili asosida o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liqligini, milliy ta'lim tizimi samaradorligi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta'lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda

ijtimoiy masalalarni ham o'rganib borishni taqozo etishini yaqqol ko'rsatadi. Gap shundaki, ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkabd tushunchadir. Milliy ta'lim tizimi sohasiga doir ta'lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishida yagona yechim bo'la olmaydi. Ta'limga doir ijtimoiy muammolar umumta'lim maktablarining jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorligi, o'qituvchilarni tayyoqlash va malakasini oshirish, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarni taqsimoti hamda ta'limni moliyalashtirish, ta'limning ahamiyatini qadriyatlar darajasiga kotarililganligi kabi masalalar bilan o'rganish barobarida ijtimoiy masalalar hal bo'lib boradi. Ta'lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalar ta'lim muammolarini barchasini hal qiluvchi yagona institute deb qaramaslik lozim bo'ladi.

Ota-ona va maktab hamkorligi doirasidagi chora-tadbirlar maktab pedagogik jamoasi hamda ota-onalar bilan kelishilgan holda ishlab chiqilishi hamda kelishilishi lozim. Qabul qilingan chora-tadbirlardan qat'i nazar, ota-onalarga nisbatan ochiq, minnatdor va hamkorlikda munosabatda bo'lish ota-onalar va maktab o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 6-ilovasida keltirilgan „Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohatlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi“// <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>
2. Alimova G. Oilada bolalar muloqotchanligini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari/Kasb-hunar ta'limi, 1-son, 2019. -11-14B.
3. Jäger-Flor, D. & Jäger, R. S. (2010). Bildungsbarometer zur Kooperation Elternhaus-Schule. Ergebnisse, Bewertungen und Perspektiven. Landau: VEP Verlag Empirische Pädagogik. -p. 266
4. Otterpohl, N. & Wild, E. (2019). Kooperation zwischen Elternhaus und Schule im Kontext der schulischen Leistungsentwicklung. In B. Kracke & P. Noack (Hrsg.), Handbuch Entwicklungs- und Erziehungspsychologie. Springer Reference Psychologie (Springer eBook Collection, S. 293-306). Berlin: Springer.
5. Sacher, W. (2017). Eltern, Lehrkräfte und pädagogische Fachkräfte als Partner – Voraussetzungen und Wege ihrer Kooperation. In G. Aich, C. Kuboth, M. Gartmeier & D. Sauer (Hrsg.), Kommunikation und Kooperation mit Eltern (1. Auflage, S. 21-34).